



A LOOK AT THE HISTORY OF THE CHOLERA EPIDEMIC IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX - BEGINNING OF THE XX CENTURY

Ravshan Tursunov

Doctor of Historical Sciences (DSc), Acting Professor

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: ravshan.tursunov.1980@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Ecological environment, drinking water, epidemic, infectious diseases, cholera epidemic, medical field, doctor, sanitary doctor, paramedic, sanitary conditions, quarantine procedures.

Received: 10.02.25

Accepted: 12.02.25

Published: 14.02.25

Abstract: The article, based on primary sources, examines the epidemiological situation in Turkestan in the second half of the 20th century and the beginning of the 20th century, the spread of cholera, measures to combat it, the shortage of hospitals and medical personnel, as well as the attitude of representatives of the government of the Russian Empire to representatives of the local population in matters of disease prevention.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDAGI VABO EPIDEMIYASI TARIXIGA NAZAR

Ravshan Tursunov

tarix fanlari doktori (DSc), professor v.b.

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ravshan.tursunov.1980@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ekologik muhit, ichimlik suvi, epidemiyasi, yuqumli kasalliklar, vabo epidemiyasi, tibbiyot sohasi, shifokor, sanitarni shifokor, feldsher, sanitarni holat, karantin tارتiblari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan epidemiologik holat, vabo kasalligini tarqalishi, unga qarshi kurash choralari, kasalxona va tibbiyot xodimlarining etishmasligi hamda Rossiya imperiyasi hukumati vakillarining kasallikni oldini olishda mahalliy aholi vakillariga bo'lgan munosabati birlamchi manbalar asosida tadqiq etilgan.

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ЭПИДЕМИИ ХОЛЕРЫ ТУРКЕСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Равшан Турсунов

Доктор исторических наук, профессор и т.д.

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: ravshan.tursunov.1980@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Экологическая среда, питьевая вода, эпидемия, инфекционные заболевания, эпидемия холеры, медицинская сфера, врач, санитарный врач, фельдшер, санитарная обстановка, карантинные процедуры.

Аннотация: В статье на основе первоисточников рассматривается эпидемиологическая обстановка в Туркестане во второй половине XX века и начале XX века, распространение холеры, меры борьбы с ней, нехватка больниц и медицинского персонала, а также отношение представителей правительства Российской империи к представителям местного населения в вопросах профилактики заболевания.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, insoniyat turli epidemiyalarga duchor bo'lib, undan doimo aziyat chekkanligini ko'rish mumkin. Bunday yuqumli kasalliklarni kelib chiqishiga, asosan ekologik muhitning buzilishi, ya'ni suv havzalari va manbalarining ifloslanishi, botqoqliklarning paydo bo'lishi, aholining sanitar gigiyenik holatga e'tibor qaratmasligi, oziq-ovqat savdosi va iste'moli bilan bog'liq maskanlarda (bozorlar, qushxona va hokazolar) tozalikka rioxaya etilmasligi asosiy sabab hisoblanadi. Demak, xavfli yuqumli kasalliklar, asosan ekologik muhiti nosog'lom bo'lgan hududlarda tez tarqalgan. Shuningdek, aholining migratsiyasi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, safarlarga chiqishi orqali ham ushbu kasalliklarni tashuvchisi bo'lib qoladi. Bu kasallikni oldini olish uchun avvalo, ekologik muhitni yaxshilash kerak, ya'ni suv havzalarini doimo toza saqlash, ularni tarkibini tahlil qilish orqali iste'molga yaroqlilik holatini o'rganish, botqoqliklarni oldini olish, bozorlar, jamoatchilik maskanlari va xonadonlarni tozaligiga e'tibor berish, chiqindilar, ularni zararsizlantirish ishlariga jiddiy e'tibor qaratish qat'iy talab etiladi. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasidagi yuqumli kasalliklar va epidemiyalarning sodir bo'lishida avvalo, aholining turli mamlakatlarga borib kelishi orqali kasallik bakteriyalarini tashuvchisiga aylangan bo'lsa, ikkinchidan, o'lkadagi suv havzalarining ifloslanishi, hovuz, quduq va ariqlardagi ichimlik suvlaring tarkibida zararli bakteriyalarning paydo bo'lishi, jamoat joylari hamda xonadonlarda chiqindi masalasining hal etilmaganligi, sanitar gigiyenik holatga jiddiy e'tibor qaratilmaganligi muhim omil bo'lgan edi. Umuman

olganda, tabiiy atrof-muhitning, ya’ni ekologik muhitning ifloslanishi oqibatida ko‘plab yuqumli kasalliklar kelib chiqadi va qanchadan-qancha insonlarning umriga zomin bo‘ladi.

Jahon ekolog olimlarining ma’lumotiga ko‘ra, havo va suv resurslarining tobora ifloslanib borishi oqibatida yuzaga kelayotgan kasalliklar tufayli dunyo bo‘yicha har yili 5.5. mln.ga[1] yaqin insonlarning vafot etayotganligi ekologik muammolarning insoniyat kelajagi uchun nihoyatda jiddiy havf ekanligini anglatadi.

ASOSIY QISM

Albatta, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Turkiston o‘lkasida yuzaga kelgan epidemiyalar va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi davlat yoki xalq kurashib, turli chora-tadbirlar ishlab chiqqan hamda yuqumli kasalliklarni oldini olish yoki himoyalanish uchun harakat qilgan. Shuningdek, epidemiyalar davrida aholi o‘z salomatligini saqlash bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ham ta’min etish kabi muhim masalalarga e’tibor qaratishga majbur bo‘lgan.

O‘lkada epidemiologik kasalliklar, jumladan, vabo kasalligi ham tez-tez kuzatilib turgan. Jumladan, 1872 yilda Turkiston o‘lkasida vabo epidemiysi keng tarqaladi. Arxiv hujjatida 1872 yilning 18 iyundan 24 iyungacha Qurama uezdi volostlarida vabo epidemiya tarqalishi holati yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan. Unga ko‘ra, ko‘rsatilgan sanalarda Chinoz, Oltin, Zangiota, Bulatov, Oqqo‘rg‘on, Biskent, Xurdan, Usmon-Ota, G‘aybota, To‘ytepa volostlarida jami 85 nafar kishi vabo bilan kasallangan bo‘lib, ulardan 11 nafari sog‘aygan, 74 nafari vafot etgan. Eng ko‘p kasallanganlar Chinoz volostidan bo‘lib, 31 nafar bemordan 7 nafari sog‘aygan, 24 nafari vafot etgan. Altinovskoy volostida kasallanganlar 38 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, kasallikka chalingan bemorlarning barchasi vafot etgan[2].

Toshkentda 1872 yilning iyun oyining o‘rtasidan to avgust oyining o‘rtasigacha vabo epidemiysi saqlanib turgan. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 3978 ta odam kasallangan bo‘lib, ulardan 2515 tasi vafot etgan. Shu bilan birga shaharning ruslar yashaydigan qismida 254 ta o‘lim holati qayd etilgan[3]. Ma’lumotlarga qaralsa, bu ko‘rsatkichlar haqiqiy kasallanganlar va vafot etganlar sonidan ancha farq qilgan. Chunki mahalliy aholi ko‘p kasallik holatlarini rus hukumatidan yashirishgan. Undan tashqari, tibbiyot xodimlari juda kam bo‘lganligi sababli barcha kasallik holatlarini nazorat qilishning imkonini bo‘lmagan.

1872 yilning 29 iyunida Xo‘jand uezdi boshlig‘i bosh yordamchisining Sirdaryo viloyati harbiy-gubernatoriga bergen hisobotida 1872 yilning 25 iyunidan 29 iyunigacha Jizzax rayonida jami 1301 nafar inson vabo bilan kasallangan bo‘lib, shundan 592 nafar bemor vafot etgan, 643 nafari sog‘aygan bo‘lsa, 81 nafar bemor kasalxonada davolanishni davom ettirgan[4].

Turkiston o'lkasida vabo kasalligini tarqalishida qisman aholining haj ziyyoratlariga borishi ham ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, 1886 yil Buxoro amirligidan 235 nafar, 1897 yilda 175 nafar ziyyoratchilar haj safariga borishgan. Biroq 1893 yilgi haj ziyyorati davomida vaboga chalingan 50 mingdan kishidan 700 nafarini Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi fuqarolari tashkil etgan. Rossiya imperiyasi epidemiologik kasalliklarni oldini olish maqsadida Batumi, Boku, Krasnovodsk hamda Qrimning Feodosiya portlarida sanitar nazorat punktlarini tashkil etib, ziyyoratchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, haj ziyyoratchilari uchun deyarli tibbiy xizmat ko'rsatilmaganligi, tashkil etilgan tibbiy punktlarda zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega emasligi oqibatida ular turli yuqumli kasalliklarga chalinib vafot etishgan[5].

1892 yilda ham o'lkada og'ir yuqumli kasallik, ya'ni vabo epidemiyasi keng tarqaladi. Birgina Toshkent shahrida 7 iyundan to 18 avgustgacha 669 nafar bemor shifokor nazorati ostida davolangan bo'lib, shundan 307 nafar bemor hamda shifokor nazoratida bo'lman 1201 nafar kasallar vafot etgan. Jizzax shahrida shifokor nazorati ostida bo'lgan 93 nafar bemordan 44 nafari va shifokorga murojaat qilmagan 431 nafar kishi vafot etadi. Jizzax uezdida vrach nazoratida bo'lman 2412 nafar bemor vabo kasalligidan ko'z yumgan[6].

1892 yil 23 iyunga kelib, vabo bilan kasallanganlarning 50 tasi qayd etilgan bo'lib, ulardan 34 tasi vafot etgan. 1892 yil iyul oyi o'rtalarigacha kuchayib, asta-sekin ortga qaytib, avgust oyida butunlay tugagan vabo epidemiyasi vaqtida Toshkent shahrining ruslar yashaydigan qismida jami kasallangan 417 ta bo'lib, shundan 200 nafar bemor sog'aygan bo'lsa, 217 nafari vafot etgan. Shaharning mahalliy aholisi yashaydigan qismida 1462 ta bemor bo'lib, ulardan 222 nafari sog'aygan, 1440 nafar bemor kasallik oqibatida vafot etgan. Shunda shaharning 2 ta qismidan jami 1879 nafar bemordan 1657 tasi vafot etgan[7]. Keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rinish turibdiki, mahalliy aholi orasida o'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan, bunga sabab aholi politsiyaga kechroq, ya'ni kasallik kuchayib og'ir yoki o'lim holatlari kuzatilganda murojaat qilishgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Rossiya imperiyasi hukmronligidan avval Turkiston o'lkasida xususan, xonlik va amirlikda halq tabobati va tibbiyat sohasi ma'lum bir davlat idoralari tomonidan qat'iy nazorat qilinmagan. Qolaversa, ta'lim muassasalarida tibbiyat sohasi bo'yicha mutaxassislar, xususan, shifokorlar tayyorlanmaganligi sababli aholi salomatligi bilan bog'liq muammolarni tabiblar yordamida bartaraf etishga harakat qilishgan. Tabiblarda zamonaviy malaka talablarining yo'qligi murakkab epidemiologik va yuqumli kasalliklarni oldini olish va ularga qarshi kurash yo'lida amalga oshirgan muolajalarini samarasiz yakunlaninishiga sabab bo'lgan.

1872 yilda Samarqand shahrida asosan rus aholisi uchun dastlabki 20 o‘rinli kasalxona ochiladi. Shifoxonalarga ijtimoiy talabning yuqoriligi bois, keyinchalik kasalxona o‘rnlari soni 50 tagacha oshirilgan[8]. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshqa hududlarda bo‘lgani kabi Samarqand viloyatida ham shifokorlarning yetishmasligi va aholiga yetarli darajada tibbiy yordam ko‘rsatilmasligi oqibatida Samarqand viloyati va shahrida ham vaqtı-vaqtı bilan tarqalgan yuqumli va epidemiologik kasalliklar orqali aholining katta qismi aziyat chekkan, ko‘pchiligi vafot etgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘lkada yuqumli kasalliklarni tarqalishiga hududdagi ichimlik suvlarining yaroqsizligi ham sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi Turkiston o‘lkasining boshqa hududlari singari Samarqand viloyati uchun ham asosiy muammolardan bo‘lgan[9].

1892 yil tarqalgan vabo kasalligidan Samarqand viloyati bo‘yicha 7872 nafar bemorning vafot etishi[10] mintaqada tibbiyot soha mutaxassislarining yetishmasligining dalolatidir. XIX asrning oxirlarida Samarqand viloyatining 4 ta uezdida 4 nafar shifokor, har bir uezdda 1 nafardan, Samarqand shahrida 1 nafar, Samarqand va Xo‘janddagi ayollar va bolalar kasalxonasida 2 nafar ayol shifokor, 12 nafar feldsher va bir nafar ayol feldsher aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullangan[11]. Bu raqamlardan ko‘rish mumkinki, XIX asrning 90-yillarida 680 ming kishini tashkil etgan viloyat aholisiga nisbatan tibbiyot xodimlarining soni nihoyatda kam bo‘lgan.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida o‘lkada tibbiyot xodimlarining tanqisligini, xususan shifokorlarning yordamchilari hisoblangan feldsherlar taqsimotiga e’tibor bersak, Sirdaryo (31300 kishiga), Samarqand (34000 kishiga) va Farg‘ona (30770 kishiga) viloyatlarida 1 nafardan feldsher[12] to‘g‘ri kelganligini ko‘rish mumkin.

Qolaversa, bu davrda Toshkent shahrida mavjud bo‘lgan shifoxonalarda bemorlar yotib davolanadigan statsionar shifoxona deyarli mavjud bo‘lman. Harbiy gospitalda yotib davolanish pullik bo‘lib, bunga barcha aholining imkonи yo‘q edi. XX asr boshida Toshkent “eski shahar” qismida 150000 mingdan ortiq aholi bo‘lib, 3 ta shifoxonada yotib davolanish uchun 30 ta o‘rinning ajratilganligi[13] o‘lkada tibbiyot hodimlaridan tashqari shifoxonalar ham yetishmasligini anglash mumkin. Biroq Turkiston general-gubernatori (25556 rubl) va viloyat harbiy gubernatorlari (16692 rubl) turarjoylari xarajatlari uchun 1905-1907 yillarda byudjetdan katta miqdorda mablag‘ sarflanib, mavjud ambulatoriya punktlari va shifoxonalar uchun esa atigi 437 rubl mablag‘ning ajratilganligi[14] achinarli hol bo‘lib, bunda Rossiya imperiyasining o‘lkada adolatsizlarcha amalga oshirgan mustamlakachilik siyosatini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

1893 yil yozida Buxoroda ham vabo kasalligi tarqaladi. Bir hafta ichida kasallik aholi o‘rtasida keng yoyilib, 2-haftada har bir guzardan bir nechta odamlar vafot eta boshlagan.

Sadriddin Ayniy Buxoro hukumatining vaboga qarshi kurash choralarini kulgili ekanligini ta'kidlaydi: "Hukumat qozi kalon vositasi bilan farmon chiqardi. Bu farmonga muvofiq, guzarning muazzinlari, xushovoz qorilari to'rttadan, beshtadan gruppalarga bo'linib, "xudovandi karim bemahal azonlar sharofati bilan el boshidan vaboni ko'tarsin" uchun har kun kechasi xuftondan tong otguncha shahar ko'chalarini aylanib, guzarlarning boshida va chorrahalarda bir ovozda bemahal azon aytishlari lozim"[15].

Rossiya imperiyasining Kogonda yashayotgan ma'murlari hududda vabo tarqalishiga befarq bo'lmasdan, ular zudlik bilan o'z tasarruflarida bo'lgan Kogonda vaboga qarshi kasalxonalar ochib, temir yo'l stansiyasida karantin e'lon qilgan. Buxoro hukumatiga ham vaboga qarshi kasalxonalar ochib, karvon yo'llarida karantin tartibi o'rnatishlari haqida taklif berishgan. Buxoro hukumati vaboga qarshi kasalxonani Shayx Jalol darvozasi tashqarisida, shahar kasalxonasiga yaqin joyda ochishgan. Biroq bu kasalxona zax bo'lgan ochiq maydonda bo'yra kapalar va oddiy chodirlardan iborat bo'lganligi bois, shart-sharoitlari og'ir ahvolda bo'lgan. Jazirama issiq bemorlarni ahvolini yanada og'irlashtirgan. Xalqning noroziligi tufayli Buxoro amiri bemorlarni bu shifoxonaga olib borish haqidagi farmonini bekor qilgan[16].

1904 yili Toshkentda tarqalgan vabo epidemiyasi 8 noyabrdan 31 dekabrgacha davom etgan bo'lib, unda 68 ta odam kasallanib, 36 ta bemor vafot etgan[17]. 1908 yilda Toshkent shahrida yana vabo epidemiyasi tarqalgan. Mahalliy aholi hukumat tomonidan amalga oshirilgan sanitar nazoratdan o'tkazish va yakkalanish chora-tadbirlariga diniy qarashlar sababli qarshi bo'lgan[18]. Ular kasallikka chalingan bemorlarni yashirishgan. Ma'lumotlarga qaraganda, eski shaharda o'lim holatlari va kasallik darajasi ancha kuchli kuzatilgan[19].

Vabo epidemiyasi boshlanishi bilanoq, shahar kasalxonasi, 1- va 2- mirshablik hududlari qoshida doimiy sanitarlar navbatchilik punktlari ochilgan bo'lib, har bir punktda 2 nafar sanitar qo'yilgan. Butun epidemiya davrida kasalxonaga 255 nafar bemor yotqizilgan. Kasalxonada bemorlardan 135 kishi vafot etib, bu umumiylashtirish 52,9 foizini tashkil etgan. Mahalliy turkistonliklardan 8 kishi, 2 nafar buxorolik, 3 nafar tatarlar, 3 nafar forslar, 1 nafar afg'on kasalxonaga yotqizilgan. Birinchi kelgan bemor 1908 yil 14 avgustda qayd qilinib, 4 noyabrdan esa oxirgi vabo bilan kasallangan bemor kelgan. 1908 yilning 21 sentabr kuni bir kunning o'zida 14 nafar bemor kelib, bu eng yuqori ko'rsatkich bo'lgan[20]. Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Turkiston o'lkasida turli millat vakillari, jumladan, forslar, afg'on, tatar, uyg'ur, dungan, taranchi kabi xalq vakillari ham istiqomat qilgan.

Kasallik boshlangan vaqtida, ya'ni 1908 yil 14 avgustda vabo yuqtirgan kasallar kasalxonaning o'zida davolanib, ular uchun 3 ta korpus ajratilgan bo'lsa, 1908 yil 14 sentabrdan boshlab esa, ya'ni epidemiyaning ilk kunidan bir oy o'tib, shahar qishgi teatrining eski binosi

kasallar uchun moslashtirilib berilgan va ularni o'sha yerga ko'chirishgan. Ammo ushbu kasalxona binosida vabo aniqlanmagan va u bilan kasallanmagan bemorlar uchun joy yo'q edi, shuning uchun ham bunday bemorlar shahar kasalxonasining o'zida saqlangan. 1908 yil 24 noyabr kuni oxirgi vabo yuqtirgan bemor davolanib chiqqan. 1908 yil 25 noyabr kuni esa vabo yuqtirganligi ehtimoli bo'lган so'nggi bemor kelib, unga ham 26 noyabr kuni kasalxonadan javob berilgan[21].

Shahar ma'muriyatining say-harakatlari bilan 1-ambulatoriyada shaharning mahalliy qismi aholisi uchun faqat 5 o'rinali vabo bo'linmasi ochilgan, unda sanitar-feldsher navbatchilik olib borgan. Vaziyatga qarab shifokorlar ham chaqirilib turgan, epidemiyaga boshida bor yog'i 2 nafar shifokor, ya'ni kasalxona mudiri va kasalxona ordinatorlaridan biri bo'lган. Epidemiya avjiga chiqqanda esa 5 nafar shifokor ishlagan: 1 nafar shifokor bo'linmalar mudiri, 3 nafar ordinator vabo bo'limida, 1 nafar ordinator kasalxonaning 3-korpusida ishlab, u yerda vabo yuqtirganligi taxmin qilingan bemorlarga qaralgan. Shuningdek, 4 nafar feldsherlar bo'lib, ulardan 3 nafari vabo bo'limida, 1 nafari esa vaboni aniqlash bo'limida ishlagan. Mehr-muruvvat tashkiloti hamshiralardan 5 nafari, ya'ni 3 nafari vabo bo'limida va 2 nafari esa vaboni aniqlash bo'limida faoliyat olib borgan.

Yuqorida statistik ma'lumotga e'tibor qartilsa, vabo epidemiyasi davrida mahalliy aholi uchun kasallikni davolashga qaratilgan chora-tadbirlar talab darajasida bo'lмаганligini ko'rish mumkin. Rus aholisiga nisbatan mahalliy aholining soni ko'p bo'lishiga qaramasdan, tub aholi uchun bor-yo'g'i 5 o'rinali vabo bo'linmasining ochilishi, unda dastlab 2 nafar, kasallik ko'paygan vaqtida 5 nafargina shifokorning hamda 4 nafar feldsherning jalb etilganligi Rossiya imperiyasi tomonidan o'lkada adolatsizlarcha olib borilgan mustamlakachilik siyosatining yaqqol ko'rinishlaridan biri edi.

Vabo epidemiyasi davrida 1908 yil 14 avgustdan to 14 sentabrgacha 10 nafar farrosh xodimlar ishlagan bo'lsa, 1908 yil 14 sentabrdan keyin esa 27 nafar farrosh xodim faoliyat olib borgan. O'rtacha olganda, 17 nafar farrosh xodim epidemiya davomida ishlab turgan[22].

Maxsus vabo bo'limi ochilishi bilan kasalxonaning 3- va 1- korpuslari shubha ostidagi bemorlar uchun ajratib berilgan. Barcha hollarda bunday bemorlarga bakteriologik tashxis qo'yilgan va natijalarga ko'ra, ular bo'linmalarga joylashtirib chiqilgan[23]. Vabo uyi (bo'linmasi) ochilishidan oldin kasalxonada shifokorlarning kunlik doimiy navbatchilik tartibi joriy qilingan bo'lib, vabo uyida 3 nafar ordinator biriktirib qo'yilgach, bu tartib bekor qilingan. Ushbu holatdan ko'rish mumkinki, epidemiyaga davrida o'lkada tibbiyot xodimlari yetishmagan. Shuning uchun ham vabo bo'linmasida yordamchi kuch sifatida 3 nafar ordinatorning kelishi

shifokorlarning navbatchilik tartibini bekor qilinishiga olib kelgan. Vaholanki, bu holat shahar aholisi uchun tibbiyot xodimlari sonining mutlaqo kam ekanligi natijasida amalga oshirilgan.

Shubha ostidagi bemorlarning kiyim-kechaklari va boshqa buyumlari qaynagan suv, bug‘ yoki formalin bilan sanitar nazoratdan o‘tkazilgan. Juda ifloslangan kiyimlar yoqib yuborilgan. Vafot etgan bemorlarning buyumlari ham yondirilgan. Tuzalib kasalxonadan javob olgan bemorlar sanitar nazoratdan o‘tkazilgan kiyimlarni yoki uyidan yangi keltirilgan kiyimlarni kiyishgan[24].

Davolash umumiyligi tartibda bo‘lib, qaynoq vanna qabul qilish, chuqur klizma bilan oshqozonning yuvilishi, komfora, teri ostiga kofein ineksiyalar qilinishi hamda eng tarqalgan usul, ya’ni iliq vanna qabul qilish va oddiy tizimli davolash (diyeta tutish va odatiy ich ketishga qarshi vositalar qabul qilish) dan iborat edi.

Sanitar shifokor K.O.Reyngardning hisobotiga ko‘ra, 1908 yilning avgust oyining o‘rtasida boshlangan vabo epidemiyasi sentabr oyiga kelib rivojlanish cho‘qqisiga chiqqan. Oktabrda esa kasallanishlar soni keskin tushib, noyabr oyida epidemiya butunlay tugagan. Shahar bo‘yicha qayd etilgan kasallanish holati 337 ta bo‘lib, 1908 yilning avgust oyida 46 ta, sentabrda 255 ta, oktabrda 44 ta hamda noyabrda 2 ta holat kuzatilgan[25].

Ilk kasallanish holatlari vokzal bo‘yi tumanlarda paydo bo‘lib, u yerdan vabo tezda shahar bo‘ylab yoyilib ketgan. Eng ko‘p kasallanish holatlari Orenburg va Toshkent temir yo‘llari ustaxonalari yaqinidagi mahallalarda va Qashg‘ar ko‘chasi hududida kuzatilgan. Shahar kasalxonasiga kelgan bemorlarni 153 nafarini erkaklar, 97 nafarini ayollar tashkil etgan[26]

Xar bir kasallanish holati to‘g‘risida zudlik bilan sanitar shifokorga xabar berilgan, u esa o‘zi yetib kelgan va sanitarlar guruhini ham yuborib turgan. Sanitarlar 2 ta halat, chuqur kovushlar hamda sanitar nazoratdan o‘tkazish vositalari bilan ta’minlangan bo‘lib, bu vositalar qo‘llarni yuvish va vabo yuqtirgan bemorlar tashilgan transportlarni (arava) sanitar nazoratdan o‘tkazish uchun zarur edi. Har bir punktda maxsus yollangan aravakash bo‘lib, u birinchi chaqiruv bilanoq sanitar bilan birga bemorlarning manziliga otlangan. Shaharning mahalliy aholi yashash qismida ham aynan shu maqsadda har kuni 2 ta arava tayyor turgan[27].

Sanitar nazoratdan o‘tkazish ishlari ko‘pincha sanitar shifokorning shaxsiy nazorati ostida uning qo‘l ostidagi 3 nafar feldsheridan biri tomonidan amalga oshirilgan. Sanitar nazoratdan o‘tkazish ishlaridan tashqari, sanitar shifokor vabo kasalligi taxmin qilingan bemorlarni borib ko‘rishiga to‘g‘ri kelgan, bunda ko‘pchilik bemor yaqinlarini uyda qoldirish maqsadida kasallikni yashirishgan. Epidemiya rivojlanib borishi natijasida shahar boshqarmasi tomonidan ikkinchi sanitar shifokor ham chaqirib olingan va bundan tashqari eski shaharda ma’muriyat talabi bilan chechak kasalligi bo‘yicha mutaxassislar ham chaqirilgan bo‘lib, ular zimmasiga

sanitar nazoratdan o‘tkazish ishlari yuklatilgan. Chechak mutaxassislari sanitar nazoratdan o‘tkazish jarayonida mahalliy aholi xonadonlarining ayollar turadigan qismi (ichkari)ni sanitar nazoratdan o‘tkazishning iloji bo‘lmagan. Shaharning rus qismida ko‘pincha aralash sanitar nazoratdan o‘tkazish ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, yopiq joylarni formalin bilan, pollarni sulemli (xlorli simob) eritma, karbol kislotasi yoki ohak suvi bilan yuvish orqali sanitar nazoratdan o‘tkazishgan. Chiqindixonalar va shunga o‘xhash joylarni sovunli karbolli eritma yoki ohak suvi bilan zararsizlantirishgan. Bemorlarga tegishli narsa buyumlarga alohida e’tibor qaratilgan, ushbu buyumlarni dizenfeksiya eritmasi bilan ho‘llab, so‘ngra ularga maxsus yozuv belgisi qo‘yilib, maxsus ekipajda ular bug‘li sanitar nazoratdan o‘tkazishga yuborilgan. Vabo epidemiyasi davrida sanitar nazoratdan o‘tkazish ishlariga turli xil mahsulotlar ishlatilib, ularni narxi 296 rubl 80 kopeykani tashkil etgan[28].

1909 yilda Toshkent shahrining tibbiy-sanitar ko‘rsatkichlari yuzasidan 1909 yil uchun Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan ma’lumotnomaga tayyorlangan[29]. Ushbu ma’lumotda 1909 yilda yuqumli kasalliklar ko‘p kuzatilgan ko‘chalar soni, yuqumli kasalliklarning umumiyligi, shahar ambulatoriyasiga kelgan bemorlar soni, sanitar shifokor tomonidan tuzilgan bayonnomalar va o‘lim ko‘rsatkichi, shaharning maydoni, aholisi soni haqida axborot berilgan.

Toshkentda 1910 yil 12 iyulda yana vabo epidemisi boshlangan. Oxirgi kasallanish holati 4 noyabrda qayd etilib, vabo kasalxonasidan oxirgi bemor 9 dekabrda tuzalib chiqib ketgan. Umumiyligi kasallanganlar soni 68 ta bo‘lib, 35 tasi vafot etgan. Atigi 3 ta kasallanish holati mahalliy aholi orasida qayd qilingan. Ulardan 2 tasi vafot etgan. Vaboga qarshi choralar va davolanish uslublari 1908 yilda bo‘lganidek amalga oshirilgan. Ushbu yilda shahar tomonidan vaboga qarshi kurashish uchun 13285 rubl, 10 kopeyka xarajat qilingan[30].

1910 yilning 13 iyulidan boshlab hududda vabo kasalligi tarqalayotganligini inobatga olgan holda Sirdaryo viloyatida Sanitariya-ijro komissiyasi tuziladi. Maxsus komissiyaning shtabi Toshkent shahrida joylashgan[31]. Bu komissiya shu kundan boshlab o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yib, muntazam ravishda hududdagi epidemiologik vaziyatni va kasallikka chalinish ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, uning monitoringgini olib boradi. Shuningdek, maxsus komissiyaning doimiy tarzda yig‘ilishlari o‘tkazilib, unda shahar sanitariya shifokori va shahar shifokorining holat yuzasidan axboroti tinglangan hamda maxsus komissiyaning qarorlari chiqarilgan.

1910 yil 7 avgustda maxsus komissiyasining 2-sonli yig‘ilishida vabo kasalligi tarqalishi ko‘lami to‘g‘risida axborot berilib, unga ko‘ra 1910 yilning 23 iyulidan toki 1 avgustgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida viloyat bo‘yicha kasallanish holatlari qayd qilinmaganligi alohida ta’kidlanadi. Biroq 1910 yilning 1 avgust kuni kechki soat 6 larda Toshkent shahar

kasalxonasining vabo bo‘limiga Samara guberniyasidan kelgan, Knyazlar shaharchasi 13-uyda istiqomat qiluvchi dehqon ayol Vera Shipilova vabo xastaligi alomatlari bilan olib kelingan. U 5 avgust kuni vafot etgan. Unda o‘tkazilgan bakteriologik tahlilda vabo kasalligi tayoqchalarini topilgan. 1910 yilning 2 avgustida Kaunchinsk shifoxonasiga O‘rta Osiyo temir yo‘llariga qarashli Vrevskoy stansiyasida yashovchi dehqon Nikolay Jitnikov vabo kasalligi belgilari bilan yotqizilgan. U 3 avgustda vafot etgan[32].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Turkiston o‘lkasida 1872 yildan to 1911 yilgacha vaqtiga bilan kuzatilgan vabo va boshqa epidemiyalar aholining ijtimoiy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Birinchidan, epidemiyalar yuqoridagi ma’lumotlar ham tasdiqlab turibdi, ko‘plab insonlarni bevaqt o‘limiga sabab bo‘lib, ijtimoiy hayotda qator muammolarni keltirib chiqargan. Ikkinchidan, epidemiya keng tarqalgan hududlarda karantin choralarini qo‘llanilishi natijasida ishchilarni ishslash imkoniyatlari cheralangan, bu esa aholini oilani boqish va kun kechirish uchun topayotgan daromadini yo‘qqa chiqargan.

XULOSA

XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshlarida o‘lkada zamonaviy tibbiyotning kirib kelishi bilan murakkab ekologik holat zaminida kelib chiqqan yuqumli kasalliklarni tibbiyot ilmiy yutuqlari asosida davolash amaliyoti joriy etila boshlandi. Eng muhim, milliy diniy tafovutlarga qaramay, mahalliy aholi yevropalik vrach va feldsherlarga murojaat qila boshlaganligi, ko‘chib kelganlar bilan do‘stona munosabatlarga kirishganligi ijobiy holatdir. Tibbiyot sohasidagi malakali xodimlardan davo topganlar soni yildan-yilga oshib bordi va aholida jismoniy hamda ma’naviy-ruhiy tetiklik, kelajakka ishonch tendensiyalari vujudga keldi. Biroq tibbiyot xodimlari va shifoxona, ambulatoriya, statsionar davolash punktlarining yetishmasligi aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolarni hal eta olmadi. Shuningdek, imperiya hukumatining mahalliy aholi salomatligiga, yuqumli kasalliklarni bartaraf etishga yetarlicha e’tibor qaratmaganligi bu boradagi muammolarni bartaraf etish imkoniyatlarini chegaralab qo‘ydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Айний Садриддин. Асарлар. 8-томлик. Т 6. Эсадаликлар З-қисм. – Т., “Тошкент” бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – Б. 74.
2. Алимова Д., Шадманова С. Из истории паломничество мусульман Центральной Азии в Мекку (конец XIX – начале XX вв.). // O‘zbekiston tarixi. № 1. 2011. – С. 53.
3. Васильев Н. Наша общая беда и как помочь ей. // Туркестанские ведомости. 1893 год, 11 июль.
4. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. – Тошкент, 1912. – С.485.

5. Очерки становления и развития экстренной медицинской помощи в Самарканде. – Ташкент, Изд. Абу Али Ибн Сино, 2004. – С.19.
6. Пален К.К. Отчет ревизии Туркестанского края. Земское хозяйство. – СПб. 1910. – С. 67-68.
7. Справочная книжка Самаркандской области на 1902 год. Вып. VII. – Самарканд. 1902. – С. 163-179.
8. Ҳайитов Ш., Айтматова З. Марказий Осиё мусулмонларининг муборак ҳажсафари: тарих ва бугун. – Бухоро. 2022. – Б.32.
9. Шадманова С. Ўрта Осиё мусулмонларининг ҳаж зиёрати тарихидан (XIX асрнинг охири – XXI аср бошларида). // Имом ал-Бухорий сабоқлари. № 3. 2010. – Б. 227.
10. O'zMA, I-17-fond, 1-ro'yuxat, 285-yig'ma jild, 64-, 94-95-varaqlar.
11. O'zMA, I-37-fond, 1-ro'yuxat, 328-yig'ma jild, 6-varaq.
12. O'zMA, I-7-fond, 1-ro'yuxat, 196-yig'ma jild, 3-, 4-, 5-, 11-varaqlar.
13. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистанда тиббиёт ва халқ табобати. / Лойиҳа раҳбари, масъул муҳаррир ва нашрга тайёрловчи т.ф.д., профессор С.Б.Шадмонова. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти. 2020. – Б. 141.